


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-oktabr oyi uchun dastlabki ma`lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-oktabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 887,0 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 121,6 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar- oktabr, mln.AQSh dollari)**

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 402,3 mln.AQSh dollariga (23,8 % ga ko'paydi) va import hajmi 484,7 mln.AQSh dollariga (19,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 82,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar- oktabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	251,1	166,9	84,2	28,3
Xitoy Xalq Respublikasida	217,7	60,4	157,3	24,5
Qozog'iston	92,4	37,7	54,7	10,4
Turkiya	85,1	28,8	56,3	9,6
Qirg'iz Respublikasi	63,0	55,9	7,1	7,1
Hindiston	15,7	0,7	15,0	1,8
Belarus	14,6	1,9	12,8	1,7
Germaniya	14,0	2,4	11,6	1,6
Ukraina	13,7	8,3	5,4	1,5
Polsha	13,4	6,4	7,0	1,5

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 75 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (28,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (24,5 %), Qozog'istonda (10,4 %), Turkiyada (9,6 %), Qirg'iz Respublikasida (7,1 %), Hindiston (1,8 %) va Belarus (1,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (251,1 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (63,0 mln.AQSh.dollari) Ukraina (13,6 mln.AQSh.dollari), Tojikiston (5,4 mln.AQSh.dollari), va Portugaliya (3,9 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	165041,3	186891,0	251087,5
Eksport	103580,8	111521,1	166933,4
Import	61460,5	75369,9	84154,1
Saldo	42120,4	36151,3	82779,4
Xitoy Xalq Respublikasi	206291,2	169797,3	217737,5
Eksport	36184,6	30339,9	60397,1
Import	170106,6	139457,3	157340,4
Saldo	-133921,9	-109457,3	-96943,3



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Qozog'iston	65760,2	89349,7	92354,5
Eksport	31047,5	40807,5	37670,7
Import	34712,7	48542,2	54683,8
Saldo	-3665,3	-7734,7	-17013,2
Turkiya	113422,5	44807,5	85100,6
Eksport	16669,4	14185,1	28822,7
Import	96753,1	30622,3	56277,9
Saldo	-80083,7	-16437,2	-27455,2
Qirg'iziston Respublikasi	77483,6	93087,2	62980,9
Eksport	73703,6	86530,2	55897,9
Import	3780,1	6557,0	7083,0
Saldo	69923,5	79973,3	48814,9
Hindiston	10235,5	10124,1	15677,7
Eksport	1149,0	227,1	656,1
Import	9086,5	9897,0	15021,6
Saldo	-7937,5	-9669,6	-14365,5
Belarus	3958,9	2380,1	14636,1
Eksport	1524,7	1753,0	1864,8
Import	2434,2	627,1	12771,2
Saldo	-909,6	1125,9	-10906,4
Germaniya	24933,0	15380,2	14026,2
Eksport	4706,5	3521,4	2394,6
Import	20226,6	11858,8	11631,6
Saldo	-15520,1	-8337,5	-9237,0
Ukraina	13268,0	9410,7	13650,4
Eksport	6603,3	7157,8	8296,8
Import	6664,7	2252,9	5353,6
Saldo	-61,5	4904,9	2943,1

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Polsha	8421,5	7627,6	13364,6
Eksport	2678,9	5862,7	6398,4
Import	5742,6	1764,9	6966,2
Saldo	-3063,7	4097,8	-567,8
Koreya Respublikasi	19192,8	14725,2	9924,6
Eksport	258,2	198,1	340,1
Import	18934,6	14527,0	9584,5
Saldo	-18676,4	-14328,9	-9244,4
Turkmaniston	2951,2	4679,2	9261,6
Eksport	785,0	2772,3	3270,2
Import	2166,1	1906,8	5991,4
Saldo	-1381,1	865,5	-2721,2
Italiya	5501,3	4480,8	6847,8
Eksport	601,6	1759,6	1089,5
Import	4899,7	2721,3	5758,3
Saldo	-4298,1	-961,7	-4668,8
Eron Islom Respublikasi	4316,2	2739,9	6653,6
Eksport	1083,0	650,0	1595,3
Import	3233,2	2089,9	5058,3
Saldo	-2150,2	-1439,9	-3463,1
Tayvan	1818,5	1124,3	6189,0
Eksport	214,5	0	42,7
Import	1604,0	1124,3	6146,3
Saldo	-1389,5	-1124,3	-6103,6
Fransiya	754,8	3862,5	6073,2
Eksport	105,4	0	0
Import	649,4	3862,5	6073,2
Saldo	-543,9	-3862,5	-6073,2

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Tojikiston	1398,4	5099,7	5451,8
Eksport	738,7	3735,0	4213,2
Import	659,7	1364,7	1238,6
Saldo	79,0	2370,4	2974,6
Malayziya	5578,0	8079,3	5250,0
Eksport	0	0	0
Import	5578,0	8079,3	5250,0
Saldo	-5578,0	-8079,3	-5250,0
Litva	8096,0	2305,6	4272,2
Eksport	198,1	181,9	679,4
Import	7897,9	2123,7	3592,8
Saldo	-7699,8	-1941,7	-2913,4
Portugaliya	1868,1	1006,7	3943,1
Eksport	1834,5	964,0	3726,9
Import	33,6	42,7	216,2
Saldo	1800,9	921,3	3510,7

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-oktabr oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 15,0 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-oktabr, % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yil yanvar-oktabr oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (29,3 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,1 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-oktyabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 456 tani tashkil etib, ular tomonidan 402,3 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,0 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (72,8 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (18,0 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalari (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- oktabr, ulushi, % da)





- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- oktabr)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	402,3	280,5	121,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	72,5	58,1	14,4	18,0	20,7	11,8
Qora metallar	3,3	2,9	0,4	0,8	1,0	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,1	4,7	0,4	1,3	1,7	0,3
Sanoat tovarlari	293,1	197,1	96,0	72,8	70,4	79,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	8,5	7,4	1,1	2,1	2,6	0,9
Xizmatlar	11,9	8,8	3,1	3,0	3,1	2,5
Boshqalar	7,9	1,5	6,4	2,0	0,5	5,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-oktabr, % va ulushi,)




2021- yilning yanvar-oktabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 41,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,0 %), Qirg'iz Respublikasi (13,9 %), Qozog'iston (9,4 %), Turkiya (7,2 %), Ukraina (2,1 %) va Polsha (1,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 90,6 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yining mos davriga nisbatan 45 davlatdan 50 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-oktabr,% da)**



- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Qirg'iz Respublikasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Ukraina*

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-oktabr)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	111521,1	166933,4	107,7	149,7	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	30339,9	60397,1	83,8	199,1	4	2
Qirg'iz Respublikasi	86530,2	55897,9	117,4	64,6	2	3
Qozog'iston	40807,5	37670,7	131,4	92,3	3	4
Turkiya	14185,1	28822,7	85,1	203,2	5	5
Ukraina	7157,8	8296,8	108,4	115,9	6	6
Polsha	5862,7	6398,4	218,8	109,1	7	7
Tojikiston	3735,0	4213,2	505,6	112,8	8	8
Afg'oniston	2116,4	3793,7	467,4	179,3	12	9
Portugaliya	964,0	3726,9	52,5	386,6	17	10
Turkmaniston	2772,3	3270,2	353,1	118,0	10	11
Germaniya	3521,4	2394,6	74,8	68,0	9	12
Misr	0,0	2098,5	0,0	100,0	0	13
Belarus	1753,0	1864,8	115,0	106,4	14	14
Moldovo Respublikasi	996,7	1646,6	78,3	165,2	16	15
Eron	650,0	1595,3	60,0	245,4	19	16
Guruziya	0,0	1218,7	0,0	100,0	0	17
Belgiya	0,0	1043,7	0,0	100,0	0	18
Italiya	1759,6	1089,5	292,5	61,9	13	19
Pokiston	2550,6	746,7	1034, 1	29,3	11	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 11906,6 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,0 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 293,1 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 72,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 66,3 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-oktyabr)

2021- yil yanvar-oktabr oyida import hajmi 484,7 mln.AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,7 %), boshqalar (17,1 %) hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,4 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 484,7 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,9 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-oktabr)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	484,7	171,3	313,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	81,7	53,1	28,6	16,8	31,0	9,1
Qora metallar	47,8	30,5	17,3	9,9	17,8	5,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	85,9	12,8	73,1	17,7	7,5	23,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	173,0	18,0	155,0	35,7	10,5	49,4
Boshqalar	96,3	56,9	39,4	19,9	33,2	12,7


Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (31,0 %) Qora metallar (17,8 %), hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (49,4 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (23,3 %) va hissasiga to'g'ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2020- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 35,7 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 16,8 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 17,7 % ga oshdi, ga oshdi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI

(yanvar-oktabr, % va ulushi)





Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 32,5 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 17,4 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-oktabr)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	139457,3	157340,4	82,0	112,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	75369,9	84154,1	122,6	111,7	3	2
Turkiya	30622,3	56277,9	31,6	183,8	2	3
Qozog'iston	48542,2	54683,8	139,8	112,7	5	4
Hindiston	9897,0	15021,6	108,9	151,8	9	5
Belarus Respublikasi	627,1	12771,2	25,8	2036,5	20	6
Germaniya	11858,8	11631,6	58,6	98,1	6	7
Koreya Respublikasi	14527,0	9584,5	76,7	66,0	7	8
Qirg'iz Respublikasi	6557,0	7083,0	173,5	108,0	15	9
Polsha	1764,9	6966,2	30,7	394,7	12	10
Tayvan	1124,3	6146,3	70,1	546,7	23	11
Fransiya	3862,5	6073,2	594,8	157,2	32	12
Turkmaniston	1906,8	5991,4	88,0	314,2	22	13
Italiya	2721,3	5758,3	55,5	211,6	14	14

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'ri	
	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.
Ukraina	2252,9	5353,6	33,8	237,6	11	15
Malayziya	8079,3	5250,0	144,8	65,0	13	16
Eron	2089,9	5058,3	64,6	242,0	17	17
Litva	2123,7	3592,8	26,9	169,2	10	18
Argentina	504,7	3089,0	16,6	612,0	18	19
Latviya	1530,3	3086,2	13,9	201,7	8	20

2021- yil yanvar-oktabr oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 65 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-oktabr % da)**





Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston va Germaniya) jami importning 78,2 % ini tashkil qiladi, bu 379109,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(69)-211-72-00**